

MAKTAB O'QUVCHILARIGA DASTLABKI KIMYOVIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHGA KREATIV YONDASHUV

Kushnazarova Shoxidaxon Kosimovana
QDPI O'qituvchisi (PhD)

Muhammadjonova Naziraxon Ravshanovna
1-Kurs talabasi

Anotatsiya. Mazkur maqola bo'lajak o'qituvchilarning maktab o'quvchilari bilan dastlabki kimyoviy tushunchalarni o'rgatishda kreativ tarzda dars o'tish samaradorligini oshirish yo'llarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: kreativ ta'lim, pedagog, kasbiy faoliyatini, rivojlantirish, kimyoning asosiy tushuncha.

Аннотация. В данной статье освещаются пути творческого повышения эффективности будущих учителей в обучении школьников элементарным химическим понятиям.

Ключевые слова: творческое образование, педагог, профессиональная деятельность, развитие, основные понятия химии.

Annotation. This article highlights ways to creatively increase the effectiveness of future teachers in teaching elementary chemical concepts to schoolchildren.

Keywords: creative education, teacher, professional activity, development, basic concepts of chemistry.

Yurtimizda ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga bo'lgan ta'lab yanada oshmoqda bu bilan bizning ma'suliyatimiz ham birga oshadi. Kelajak yoshlar qo'lidadir. Biz ta'lim tizimiga o'zgacha yondashsak undagi kamchiliklarni bartaraf etib, muammolarni hal etsak bizning yurtimiz yanada rivojlanadi. Davlat rivojlanishi bu ta'lim tizimiga bog'liq yoshlarning rivojlanishiga bog'liq. Shunday ekan biz avvalambor ta'lim tizimini o'zgartirishni bo'lajak pedagoglardan boshlashimiz lozim. Ushbu maqolamiz bo'lajak pedagoglarimizni maktab o'quvchilariga **dastlabki kimyoviy tushunchalarni shakllantirishga kreativ yondashuvning** mohiyati ochib berilgan. **Kreativlik o'zi nima? Kreativlik** –(“create”- yaratish, creative – yaratuvchilik, ijodkorlik) degan ma'noni anglatadi . Kreativlik individni ishlab chiqish demakdir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, ong ostida, insonlar bilan muloqotida, his tuyg'ularida ma'lum bir faoliyat turlarida hosil bo'ladi. Kreativlik insonning zehni o'tkir bo'lishini va ko'plab xususiyatlarini yaxlitlab beradi, ochilmagan qirralarni ochishga yordam beradi.

Boshqa hislatlar kabi kreativlik ham birdaniga rivojlanmaydi albatda. Ma'lum bir vaqt talab etadi ammo vaqt o'tib albatda o'z natijasini ko'rsatadi. Kreativlik xususiyatiga ega pedagog kasbiy faoliyatini rivojlantirishga sabab bo'ladi. Odatda pedagoglarni kreativlik qobilyatiga ega bo'lishi nafaqat o'quvchi balki o'zi uchun

ham foyda aslida. Misol uchun pedagogik muammolarni oson hal qilishi, ilmiy tadqiqot va ilmiy ishlarni hamda ijodiy hamkorlikka erishishadi. Har bir kasbda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarga ham bu xislatni talabalik davridayoq poydevor qo'yiladi.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, ular o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda olim Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agar o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir.

Ilmiy tadqiqot metodlariga qo'yiladigan talablar. Pedagoglar avvalo metodik qo'llanmalardan boshlaymiz. Har bir mavzuga o'zgacha tayyorgarlik qilamiz. Misol uchun mavzu ; ATOM tuzilishi, Kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari, deb oladigan bo'lsak. So'zni avval kimyo fani aslida qanday fan ekanidan boshlaymiz. Bazi insonlarda xotira borasida muammolar bo'lishi mumkin ularga ham o'zgacha yondashamiz. Sinfda shunday eslab qolish qobiliyati sust bo'lgan o'quvchilarni izlaymiz va ularga o'zgacha yondashamiz . Esrab qolish qobiliyati sust bo'lgan bolalarda tasavvur qilish qobiliyati kuchli bo'ladi, shunday ekan biz endi tassavur olamiga sayohat qilamiz .

Qadimgi yunon faylasufi Demokrit bundan 2500 yil muqaddam barcha jismlar juda mayda, ko'zga ko'rinmaydigan, bo'linmaydigan, doimo harakatdagi zarrachalardan - atomlardan tarkib topgan, degan fikrni aytgan edi. "ATOM" so'zi tarjima qilinganda "bo'linmas" degan ma'noni bildiradi. ATOM – musbat zaryatlangan yadro va uning atrofida harakatlanuvchi bir yoki bir necha elektrondan tashkil topgan elektro neytral zarracha hissoylanadi.

Molekula va atomlar haqidagi ta'limot 17 – asrning o'rtalarida rus olimi M.V. Lomonosov tomonidan takomillashtirildi. M.V. Lomonosov tabiatdagi jismlar korpuskalar (molekulalar) dan tarkib topgan, korpuskalar tarkibiga element (atom)lar kiradi, degan fikrni aytadi. Olim moddalarni turli-tumanligini molekulalarda turli atomlarning birikishi va ularda atomlar turlicha joylashishi bilan tushuntradi. Molekula va taom haqidagi ta'limot faqat 1860 – yilda kimyogarlarning Karlsruyedagi butunjahon syezdida uzil kesil etirof etildi.

Agarda biz daslabki kimyoviy tushunchani huddi shu kabi kitobiy tilda boshlaydigan bo'lsak deyarli 85 % bolalar etiborini yo'qotamiz. Barchamizga ma'lumki kimyo fan hammaga ham birdek yoqmaydi. Kelajakda kimyo fan hammaga ham zarur bo'lmasada kundalik hayot tarzida as qotishi aniq. O'quvchilarga shunday malumotlarni berishdan boshlaymiz.

Kimyoni fani nima uchun o'rganishi zarur. Savol; Kimyo nima ?

Dasnlabki kimyoviy tushunchalarni o'rgatishda kreativ yondashuv asosida o'rgatish. Kimyo bu siz, biz, tabiat, qushlar, hayvonlar, jonli va jonsiz tabiat

asosini tashkil etuvchi omillardir. Bunday malumotda o'quvchida tassavurida inson tanasi kimyoviy moddalardan tashkil topganmi? Bu vaziyatda pedagoglar shunday kreativ tarzda tushintiriladi shunday inson tanasi mo'jiza ko'plab elementlar va hujayralarni o'zida jamlagan kimyoviy unsurlar yig'indisidir. Inson tanagda biz hali aniqlab ulgurmagan elementlar mujassamdan iborat. Aynan shu ma'lumotdan so'ng 50 % o'quvchi etiborini jalb qila oldik ya'ni kimyoga bo'lgan qiziqishini uyg'onadi. Endi pedagoglarni vazifasi qolgan 50 % o'quvchini jalb qilish bo'ladi. Kimyo bu tabiat biz ko'z bilan ko'rgan va ko'rmagan barcha narsalardir. Biz ko'z bilan ko'rganlarimizni tariflay olamiz ammo ko'z bilan ko'rmaydiganlarimiz bu havo kislorod va molekular chunki biz uni borligini bilamiz ammo ko'z bilan ko'ra olmaymiz lekin bu ham kimyo moddalardir. Misol uchun NaCl – osh tuzini misol qilib oladigan bo'lsak. Birinchi o'rinda osh tuzi tarkibiga e'tibor beriamiz u natriy va xlordan iborat. Natriyni oddiy xolatini tasavur qiladigan bo'lsak, natriy bu yumshoq metaldir va u suvni o'ziga tortuvchi kuchli moddadir. Natriyni ochiq havoda saqlab bo'lmaydi u havodagi namlik bilan ham reaksiyaga kirishishi mumkin shu sababli ham uni maxsus idish va kerosin suyuqligida saqlanadi, vaholanki natriy oddiy xolatda bizga zararlidir.

Xlor – xlor uchuvchan bo'g'uvchi gaz hisoblanadi uning ma'lum miqdori inson tanasiga tushsa zaxarlab o'ldirishi mumkin. Anashu ikk elementlar ionlarga ajralib biz uchun foydali mahsulotga osh tuzini hosil qiladi. Biz tuzni iste'mol qilmasak ko'plab kasalliklar kelib chiqishi mumkin misol uchun qosh to'kilishi, soch to'kilishi, tish to'kilishi va shunga o'xshash ko'plab kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Shunday ma'lumotlardan so'ng qolgan 50 % o'quvchlarini ham kimyo faniga qizitirib jalb qila oladi. Endi esa qolgan ma'lumotlarni sekin asta tushuntirishni boshlaymiz. Kreativ yondashuv asosida dastlabki kimyoviy tushunchalar shu zayilda takkomillashtirib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P.N. Mirzayev , M.P.Mirzayeva KIMYO
2. S. Masharipov , I.Tirkashev. KIMYO
3. I. R. Asqarov , N. X. To'xtaboyev. KIMYO 7
4. Badiy asarlardan ko'plab fikrlar.
5. Кушназарова, К. Ш. (2022). *Совершенствование системы классификации мясомолочной продукции на основе товарной номенклатуры (Doctoral dissertation, Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора философии по техническим наукам (PhD). Ташкент)* (Doctoral dissertation, Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора философии по техническим наукам (PhD). Ташкент).
6. Кушназарова Шохидохон Косимовна, Азимов Нурмухаммад Шухратович, Валиев Нейматжон Валижон Ўғли, & Очилов Голибжон Мамаюнусович (2022). РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЯЖЕЛЫХ МЕТАЛЛОВ В НЕКОТОРЫХ ВИДАХ СЫРОГО МЯСА. *Universum: химия и биология*, (11-1 (101)), 53-57.

7. Хужаев Вахобжон Умарович, Очилов Голибжон Мамаюнусович, & Кушназарова Шохида Касимовна (2020). КЛАССИФИКАЦИЯ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЖИРНОСТИ МЯСНЫХ ПРОДУКТОВ С МЕТОДОМ ГАЗА ЖИДКОСТНОЙ ХРОМАТОГРАФИИ. *Universum: технические науки*, (12-2 (81)), 108-115.
8. Kushnazarova Shohidaxon Kosimovna (2020). Sifatsiz va qalbaki go'sht mahsulotlarini aniqlash usullari. *Life Sciences and Agriculture*, (2-2), 1-5.
9. Кушназарова, Ш. К. Сифатсиз ва қалбаки гўшт маҳсулотларини аниқлаш усуллари. *Life Sciences and Agriculture*, 2-1.
10. KUSHNAZAROVA, S., HUZHAEV, V., & OCHILOV, G. (2021). ÉTUDE DE LA TENEUR EN MÉTAUX LOURDS DES PRODUITS LAITIERS PRODUITS EN OUZBÉKISTAN. *ПРИДНЕПРОВСКИЙ НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Частное предприятие Издательство "Наука и образование"*, 12(4), 16-21.
11. Omonjonovich, N. B., & Kosimovna, K. S. Valijon o'g'li, VN, & Shukhratovich, AN (2022). *ON THE MODERN INTERPRETATION OF THE HISTORY OF CHEMISTRY. Open Access Repository*, 8(12), 655-658.
12. Гўшт-сут маҳсулотлари таркибидаги оғир металл (Pb,As, Cd, Hg ва Zn) тузларини аниқлаш. В.У.Хужаев, Ш.К.Кушназарова, Ғ.М.Очилов 2021 й кимё тадқиқотлар том 13.55 33-41 бетлар АДУ илмий хабарнома.
13. Kosimovna, K. S., & Usmubovna, N. I. (2023). SUT MAHSULOTLARI ASSORTIMENTLARINI ANIQLASHGA OID MASALALAR. *Conferencea*, 105-107.